

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishslash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining o'rni 9

A.Y.Toyirov

Hududiylar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'rni 16

FALSAFA**A.A.Qambarov**

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

S.S.Evato

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili.... 37

I.A.Asatulloev

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiat deformatsiyasi..... 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn Axmadning ontoljik qarashlari..... 54

L.K.Axatov

Irfoniylar qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida)..... 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandası..... 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalalarining o'rni va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar assosi sifatida..... 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islam qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



УО'К:12:821.222.1:929

**ABDURAUF FITRAT MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI YURTIMIZ TARAQQIYOTIDA
TUTGAN O'RNI**

**МЕСТО, КОТОРОЕ ДУХОВНЫЕ И НРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА
ФИТРАТА ЗАНИМАЮТ В РАЗВИТИИ НАШЕЙ СТРАНЫ**

**THE PLACE THAT ABDURAUF FITRAT'S SPIRITUAL AND MORAL VIEWS HOLD IN
THE DEVELOPMENT OF OUR COUNTRY**

Rahmonova Mavluda Abdusamadovna 

¹Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrasи dotsenti,
falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Fitratning axloqiy tarbiya konsepsiyasining mohiyati, axloqiy mayllar masalasi va Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni Yangi O'zbekistonimizda ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, uchinchi Renessans poydevorini qurishda foydalanishning bugungi kun uchun ahamiyati ochib berilgan. Buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy merosida, falsafiy ta'limoitida ijtimoiy hayotdagi munosabatlar, davlat va din munosabati xususida so'z borar ekan, ularning o'zlarining tolerantlik, bag'rikenglik haqidagi Sharqona konsepsiyalarini yarata organliklari haqida so'z boradi.

Аннотация

В данной статье раскрывается суть концепции Фитрата о нравственном воспитании, вопрос о нравственных наклонностях, а также роль духовно-нравственных взглядов Фитрата в воспитании молодежи, важность их использования в развитии духовно-просветительской сферы в нашем Новом Узбекистане и основа третьего Ренессанса на сегодняшний день. Научное наследие и философские учения наших великих мыслителей, когда речь идет об отношениях в общественной жизни, об отношениях государства и религии, говорят об их способности создавать собственные восточные концепции толерантности и терпимости.

Abstracr

This article reveals the essence of Fitrat's concept of moral education, the issue of moral inclinations, and the importance of Fitrat's spiritual and moral views in the education of young people for the development of the spiritual and educational sphere in our New Uzbekistan, and the use of them in building the foundations of the third Renaissance for today. The scientific heritage and philosophical teachings of our great thinkers, which deal with relations in social life, the relationship between state and religion, speak of their ability to create their own Eastern concepts of tolerance and tolerance.

Kalit so'zlar: Barkamol avlod, bag'rikenglik, komil inson, ruhiy kamolot, ma'naviy kamolot, komillik, tolerantlik, do'stlik, tinchlik, ezunglik, fazilatga muhabbat.

Ключевые слова: Совершенное поколение, терпимость, совершенный человек, духовная зрелость, духовная зрелость, совершенство, терпимость, дружба, мир, доброта, любовь к добродетели.

Key words: A perfect generation, tolerance, a perfect person, spiritual maturity, spiritual maturity, perfection, tolerance, friendship, peace, goodness, love of virtue.

KIRISH

Hozirgi o'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy tarbiyasining shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Amudaryo va Sirdaryo oralig'iда joylashgan bu yurt Turonzaminga voris hisoblanib, bu zaminda hamma zamonlarda ham yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, ma'naviy dunyoqarashiga alohida e'tibor qaratilishining samarasi o'laroq, jahonga tengsiz aql-zakovat sohiblarini taqdim etib kelgan. O'zbek xalqining kelib chiqishi, davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq qilgan olimlar, uning madaniyati, ma'naviyati, dini, urf-odatlari, qadriyatları, tili, ma'naviy-axloqiy tarbiysi, turmush tarzi, san'ati turkiy xalqlar bilan mushtarak bo'lsa-da, bu xalq o'zini mustaqil - o'zbek millatiga mansub deb biladi, deb ta'kidlaydilar. Xalqning shakllanishi va o'z tarixiga ega bo'lishi uning ma'naviy birdamligi hamda axloqiy jihatdan yakdilligi bilan bog'liqdir.

Xo'sh, xalqni yakdil qiladigan ma'naviyat o'zi nima? Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki,

FALSAFA

ma'naviyat rivojlansagina, jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi.

"Ma'naviyat" tushunchasi falsafaning eng muhim sohalaridan bo'lib hisoblanadi. Chunki, aynan Falsafa fani ma'naviy voqelikni o'ziga xos tomonlarini o'rghanish orqali, inson, jamiyat va davlat ma'naviy taraqqiyotiga dahldor konseptual va strategik g'oyalarni taqdim etishini inobatga olgan holda, ma'naviy-axloqiy soha ilmiy tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin, deya bermalol aytishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda: "Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritgichi - ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lesi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur".

Buyuk jadid mutafakkiri, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitratning ilmiy merosi turli soha olimlari tomonidan tadqiq etilib kelinayotganligi, ma'rifatparvar dunoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan muhit tahlili ko'rsatib o'tilgan.

Abdurauf Fitrat ijodiga teranlik, kengqamrovililik, serqirralilik, murakkablik xususiyatlarining xos bo'lishi va unda adib yashab o'tgan davr ruhiyatidagi keskinlikning aks etishi tasodifiy hol emas. Fitrat o'zi yashab turgan jamiyatni tutib turgan barcha qonuniyatlarini idrok qilishga, uning o'tmishini mushohada qilishga intildi va aynan shu jamiyatning kelajagi haqida qayg'urdi. O'zbek xalqi tarixidagi muhim voqealar, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi g'oyaviy kurashlar tarixiy shaxslar va inqiloblar davri uning dunoqarashiga ta'sir etmay qolmadı.

Abdurauf Fitrat ijodini shakllantirgan muhim omillardan biri, adib yashagan davr - XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi Buxoro va Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotiga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega. Bu Fitrat ijodining murakkabliklarini, xususiyatlarini bir butunlikda teran his qilishga yordam berishi aks ettirilgan. Shuni aytish kerakki, Abdurauf Fitrat falsafiy qarashlari bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ammo mutafakkir ilmiy-falsafiy merosining ma'naviy-axloqiy jihatlari hozirgacha bir butun yaxlit tizimli ilmiy ish sifatida tadqiq qilinmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tarixni shaxslar o'zgartiradi. Tarixiy shaxslar, ular tafakkuri va amalga oshirgan ishlarning davrga, zamonaga ta'siri beqiyosdir. Qaysi davr bo'lishidan qat'iy nazar, o'zlarining bor aql-zakovatlari, hatto hayotlarini ham xalq turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charog'on qilishga bag'ishlagan daholar bo'lgan. Ijodining mohiyatida millat orzu-umidlari aks etgan ma'rifatparvar-ziyolilar mana shunday daholar sirasiga kiradilar. Ular qoldirgan ilmiy merosni o'rganish, asarlarida ko'tarib chiqilgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-axloqiy muammolarni tadqiq etish bugungi istiqlol sharoitida dolzarb masalaga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqlarida: "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz", deb ta'kidlaydilar.

O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov ta'biri bilan aytgan esa: "Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiri, Abdulhamid Cho'pon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi". Darhaqiqat, ma'rifatparvar-jadidlar ijodida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'naviy muammolarni aks etgan va bu muammolarni bartaraf etish uchun ular doim harakatda bo'lishgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mamlakatimiz milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari borar ekan, ozodlik kuychisi, o'zbek faylasufi, tarixchi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyotining asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining tanqli vakili, birinchi o'zbek professori, ma'rifatparvar Abdurauf Fitratning ma'naviy-axloqiy qarashlarini ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zining boy ma'naviy merosi bilan Sharq ijtimoiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ma'rifatparvar, O'rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat va uning ma'naviy-axloqiy g'oyalari falsafiy tafakkur taraqqiyotida noyob hodisadir. Fitrat qomusiy ilmga ega, o'z qalamini badiiy va ilmiy ijodning juda ko'p sohalarida sinab ko'rgan va muvaffaqiyat qozongan kamyob iste'doddardan edi. U zabardast tilshunos, tarixchi, faylasuf, huquqshunos bo'lishdan tashqari, o'rta asrlardagi qomusiy olimlar singari musiqaning ham nazariyasi, ham amaliyoti bilan shug'ullangan. Asarlari 260 bosma taboqdan ziyod ilmiy merosni tashkil etadigan A. Fitrat Britaniya ensiklopediyasi sahifalarida o'zbek faylasuf olimi sifatida qayd etilgan allomadir. Zotan, o'sha davr O'rta Osiyo olimlari orasida birinchi bo'lib Fitrat Sankt-Peterburg (o'sha vaqtarda Leningrad) Davlat universiteti tomonidan 1923 yilda professorlik unvonini olishga tuyassar bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki, Rossiya sharqshunoslari o'tgan asr birinchi choragidayoq Fitrat fenomenini, uning zukko olimligini tan olganlar. Fitratning nomi xorijiy Sharq mamlakatlarida ham tanilgan edi. Turkiyada ta'lif olib, Sharq xalqlari tarixi, adabiyoti sohasida yirik mutaxassis darajasiga ko'tarilgan Fitrat o'tgan asrning 20-yillar o'zbek madaniyati, falsafasi, adabiyoti, san'ati rivoji uchun juda boy va o'limas meros qoldirdi. Fitrat asarlari bugungi kunda ham oilada va jamiyatda yoshlarni tarbiyalashida dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Aynan mutafakkir dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan sabab bu - XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi o'lda tarixidagi muhim va ayanchli jarayondir. Chor Rossiyasining O'rta Osyonini bosib olishga bo'lgan ehtiyojiga va unga nisbatan jadal mustamlakachilik siyosatini yurgazishiga uning harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli asosiy sabab bo'ladi. Bundan tashqari rivojlanayotgan engil sanoat uchun paxta, pilla, qorako'l va boshqa xom ashyolar zarur edi.

Rossiya tomonidan O'rta Osiyo istilosiga g'oyaviy tayyorgarlik XVIII asr boshlarida Pyotr I tomonidan boshlangan bo'lsa, xuddi shu davrdan boshlab, Turkistonda ham istilo uchun tabiiy sharoit etila boshlagan edi. XVIII-XIX asrlarda feodalizm emirlishi davrida avj olgan mahalliy beklarning o'zaro urush va janjallari, Turkistonning uchta mustaqil xonlikka bo'linishi, ularning orasidagi o'zaro ziddiyatlar, urushlarning avj olishi diniy mutaassiblikka keng yo'l ochib berdi. Bu esa jamiyatda din peshvolarini muayyan mavqega ega bo'lib, har qanday fan va madaniyat yangiliklariga musulmon ahloqiy normalari, islom dini nomidan ko'r-ko'rona qarshilik ko'rsatishlariga sabab bo'ldi. Oqibatda Turkiston xalqlarining madaniy va iqtisodiy hayoti tanazzulga yuz tutdi.

Ana shunday sharoitda Rossiyaning Turkiston istilosini yo'lidiagi g'oyaviy tayyorgarligi o'zining amaliy ifodasini topdi. 1874 yilda Xivaga qarshi yurish boshlab, Amudaryoning o'ng etaklari Rossiyaga qo'shib olindi va Amudaryo bo'ldasi tuzildi. Qo'qon, Buxoro, Xiva xonliklari rus qo'shinlarining tazyiqi ostida Rossiya bilan sharmandali shartnomalar tuzishga majbur bo'ldilar va Rus podshosining vassaliga aylandilar. Vassallik holida Buxoro va Xiva xonliklari saqlanib qoldi. Qo'qon xonligi esa, qirg'iz-qipchoq Abdurahmon oftobachi Xudoyorxonning rulslarga bo'y sunishga rozilik bermay isyon ko'targanda, isyonni bostirish bahonasi bilan yo'q qilindi.

Buxoro amirligini Rossiya imperiyasi tomonidan to'laligicha istilo qilinishi yo'lida bir necha to'siqlar bor edi. Bu birinchidan, Afg'oniston va Buxoroning chegaradoshligi orqali yuzaga kelgan kuchli ingliz-rus ziddiyatlari edi. Ikkinchidan, bu Buxoroning islom olamidagi o'mi bilan belgilanar ediki, asoratga solish musulmonlar orasida rus hukmdorining mavqeini tushib ketishiga olib kelardi. Uchinchidan, Buxoro Turkiston kabi juda foydali strategik holatda emas edi, "Janubiy dengiz", Hind okeani kabi magistral yo'llardan chetraqda bo'lib, sarflangan harbiy va moddiy mablag'larni oqlay olmasdi.

Turkiston tarixini yoritishdagi rus olimlarining katta xizmatlarini e'tirof etish lozim. Ular asarlaridan ancha ma'lumotlar olish mumkin. Lekin ba'zi jihatlarga shartli ravishda yondashish lozim bo'ladi. Masalan, rus tarixchisi P.G.Galuzo Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini shunday tasvirlaydi: "Sanoat kapitali rivojlanishi yo'liga kirgan Rossiya O'rta Osyodek bir mamlakatni o'ziga qaram qilib oldiki, bu erda ichki bozor shakllanish protsessi endigina boshlanayotgan, markazlashgan feodal hukmronliklari shakllanish jarayoni tugallanmagan, hattoki eng ilg'or tumanlarda ham erga mulkdorlik va dehqonchilik munosabatlari rivojlanmagan va nihoyat qoloq tumanlarda hattoki urug'chilik munosabatlari hukmron edi". Bu fikrni tahlil etish uchun quyidagi iqtibosni keltiramiz: "Buxoro amirligining iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan, aholining asosiy qismini dehqonlar tashkil etardi. Dehqonlar umumiylis hisobda 86 turga yaqin turli xil soliqlar to'lar edilar, bu davlat xazinasiga 36 mln. so'mlik foyda keltirardi". Buxoro amirligida amlok, mulk va vaqf erlari mavjud bo'lib, 86 turga yaqin soliq olingan ekan, bu aholining moddiy daromadidan darak

FALSAFA

beradi. Boshqa tomondan asosiy foizni dehqonlar tashkil etgan mamlakatda mulkdorlik va dexqonchilikning rivojlanmaganligi ehtimoldan yiroqdir.

Buxoro amirligi iqtisodiyotiga rus kapitalining kirib kelishi bilan, yangi ishlab chiqarish vositasiga bo'lgan nisbatan progressiv yollanma mehnatni joriy qilinishiga asoslangan kapitalistik xususiy mulkchilik vujudga keladi. "Ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda XX asr boshlariga kelib, bu erda paxta tozalash zavodlaridan tortib, oziq-ovqat chiqindilarini qayta ishlovchi sexlargacha, sanoat korxonalarining soni 92 taga etgan". Darhaqiqat, P.G.Galuzo ta'kidlaganidek, bu erda ichki bozor shakllanib ulgurmagan. Rivojlanishda orqada qolgan, hatto urug'doshlik munosabatlari amal qilayotgan muzofotda birdaniga 92 ta sanoat korxonasining ishga tushishi haqiqatdan yiroqdir. Ammo Turkistonda Rossiyaning kapitalistik munosabatlarni joriy etishi uchun ozmi-ko'pmi sharoit mavjud bo'lib, istilochilar buni albatta nazarga tutgan edilar.

Buxoro amirligi Qo'qon xonligi va Xiva xonligiga qaraganda o'zining yirik diniy markaz ekanligi bilan ajralib turar edi. Bu davorda Buxoroda uch yuz ta masjid va yigirma ming talabaga ega bo'lgan yuzlab madrasa va boshqa o'quv muassasalari faolit ko'rsatar edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonagi madaniy hayot o'zida Rossiya Turkistonni bosib olishidagi iqtisodiy, sotsial jarayonlarni aks ettirardi. Chor Rossiyasining siyosati Turkistonagi madaniy vasiylikni o'z zimmasiga olish va shu maqsad ostida rus madaniyatini Turkistonga kiritish uchun ongli ravishda qilingan harakat edi. Bu siyosatni amalga oshirishda chor Rossiyasi uchun Turkistonda hukmon idealogiya sanalmish islom jamiyatining tanazzulga yuz tuta borgani ayni muddao bo'ldi.

Bu davrga kelib nafaqat diniy soha, balki, ilm-fan, xususan tabiiy fanlar chuqur tanazzulga yuz tutgan edi. Ilmning musulmon mutaassibiliyi bilan birga qabul qilgan tor sxolastik yo'naliishi madrasalarni haqiqiy ilm bilan aloqasini yo'qotgan va evropa ta'lim tizimlari asoslarini inkor qiluvchi muassasaga aylanrir ekan, hamma narsani vayron qildi.

Abdurauf Fitratning Buxoro jadidlarining faoliyatini baholashda birlamchi manba bo'ladigan "Najot yo'li" ("Rahbari najot") asari 1914 yil iyul oyida yozilgan. Asar tezlik bilan Buxoro va Turkiston hududlarida tarqalib, turkistonliklarning g'oyaviy dasturulamaliga aylanib ketadi. Aytish lozimki, Buxoro sharoitida millatning zahmlari, qoloqlik holati, mubtalo bo'lgan xastaliklari haqida birinchi bo'lib Fitrat olamga jar solib ma'lum qiladi. U birinchi bo'lib buxoroliklar va turkistonliklarni o'zlariga tanqidiy qarashga da'vat etadi. Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti" va boshqa publisistik asarlarida umumiy ruh - bu Buxoro amirligini qoloqlikda ayblash va uning taraqqiyot sari yo'l olishini istashdir.

Fitrat ma'naviy-axloqiy va falsafiy dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan muhim omillardan biri, mutafakkir yashagan davr-XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy va ma'naviy hayotiga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega. Bu Fitrat dunyoqarashini bir butunlikda teran his qilishga yordam beradi.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishga bo'lgan ehtiyojiga va unga nisbatan jadal mustamlakachilik siyosatini yurgizishga uning harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli asosiy sabab bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan xalqni ham ma'nан ham ruhan singdirish uchun ularni ma'naviyatiga, diniga o'zligiga zarba berishga chaqiqar edi. Bu holatni tushunib etgan vatanparvar mutafakkirlarimiz xalqni ma'nан va ruhan tobe bo'lmastiklari uchun ularni dunyoqarashlarini o'stirish, bilimlarini ortirishga, yoshlarni esa ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk kadr bo'lislari uchun tunu-kun mehnat qildilar.

Fitratning bu yo'ldagi fidokorligi va mehnati o'zbek xalqi ilm-fani va madaniyati tarixida samarali iz qoldirgan, istiqolimizni oldindan ko'ra oлgan fidoiylardan bo'lib hisoblanadi. Uning serqirra ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatida hozirgi zamon va kelajagimiz haqidagi g'oyalar bayon qilingan. O'z vaqtida u o'zbek xalqida milliy vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishga, yurtni obod, fuqaroni ma'rifatli qilishga intilgan.

Abdurauf Fitrat asarlarida chor Rossiyasi tomonidan Turkiston zo'rlab bosib olinib mustamlakaga aylantirilganligi, keskin qoralangan. U bu haqida o'zining "Yurt qayg'usi" she'riy to'plamida "Ko'rdim, yozdim, eshitdim, o'qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo'qdir", -deb yozgan edi.

Buxoroda 1920 yilgi inqilob va Buxoro Xalk Sovet Respublikasi tashkil topganidan keyin A.Fitrat maorif noziri (vaziri) lavozimini egallagan, so'ngra 1921 yilda tashqi ishlar noziri bo'lib ishlagan, shuningdek, boshqa mas'ul vazifalarda faoliyat yuritgan. U qilmagan ishlari uchun nohaq, abylovlar natijasida siyosat maydonini tark etishga va Moskvaga ketishga majbur bo'lgan

1923-1924 yillarda Fitrat Moskva va Leningradda Sharq tillari institutida ishlagan, u erda turk, arab, fors tili va adabiyotidan dars bergan hamda adabiyotshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan. Leningrad universiteti professori etib saylangan. Ilmiy jamoatchilikka uning manbashunoslik sohasidagi kashfiyotlari, tarixiy xarakterdagи asarlari ham ma'lum.

O'zbekistonga qaytganidan keyin A.Fitrat o'zining madaniy-ma'rifiy faoliyatini davom ettirgan va uning ijodiy merosi "Abulfayzxon", "Bedil", "Qiyomat", "Shaytonning tangriga isyonи" kabi tarixiy-adabiy, falsafiy asarlari bilan boyigan. O'zbek tili qoidalariga bag'ishlangan "Sarf" ("Morfologiya") va "Nahv" ("Sintaksis") asarlari uni tilshunoslik bilimdoni sifatida mashhur qilgan. Musiqashunos sifatida noyob manbalarga aylangan "Shashmaqom", "O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi", "Sharq musiqasi" ilmiy asarlari muallifiga aylangan.

Abdurauf Fitrat umrining so'nggi yillarda respublikaning ilmiy-tadqiqot muassasalarida. Jumladan Samarcand o'qituvchilar malakasini oshirish institutida, Toshkentdagи Til va adabiyot institutida ishlagan.

1937 yilda u "xalq dushmani" sifatida hibsga olingen va 1938 yili Toshkentdagи Bo'zsuv anhori yoqasida otib tashlangan.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitratning O'zbekiston fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi va kelajak avlodlarga o'rnak bo'uvchi fuqarolik jasoratini inobatga olib hamda uning ilmiy va adabiy merosini alqimizga to'la etkazish maqsadida 1996 yil 22 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, Vatanimiz ozodligi va istiqlol uchun kurashlarda jon fido etgan, millatni hurriyat va erkinlikka chorlagan, sho'ro tuzumi davrida qatag'on qurbanlari bo'lgan minglab fidoyi shahid ziyojolar xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini yanada chuqur o'rganish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 12 maydagi "Vatan va xalq ozodligi yilida qurban bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi Farmoyishi, 1999 yil 22 iyuldagи O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori hurriyat, ozodlik, erk va taraqqiyot uchun kurashgan ajodolarimiz xotirasini abadiylashtirish yo'lidagi muhim tadbirlar bo'ldi.

Insoniyat tarixida shunday daholar borki, ular o'z hayoti, ijodi, fikru zakovatini xalq tur mushini yaxshilashga, ertangi kunini charog'on qilishga bag'ishlaganlar. Qatag'on tufayli ma'naviyatimiz tarixidan yulib tashlangan millatparvar jadidlar ilmiy merosini o'rganish, asarlarda ko'tarilgan ma'naviy-axloqiy muammolarni tadqiq etish bugungi istiqlol sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. "Davr farzandlarini yuksak fazilatli insonlar etib tarbiyalash o'sha zamon ma'rifatparvarlarining hayotiy va fuqarolik e'tiqodiga aylandi. Bu orzu Behbudiy va Avloniy, Hamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho'pon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi. Ularning xalq erkinligi va saodati yo'lidagi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallari uchun ulkan ma'naviy omil bo'ldi. Bu orzu ma'naviyat va ma'rifatni odamni nafaqat komillikka, erkin va farovon tur mushga etaklovchi, balki xalqni milliy mustaqillikka eltuvchi beqiyos kuch sifatida anglab etish imkonini berdi". Zero, bu ulug' ma'rifatparvarlar ijodining mohiyati jamiyat va millatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'pon, Usmon Nosir kabi fidoyi olimlarning oldingi safida Abdurauf Fitrat ham o'z elining aqli va qalb ko'ziga aylangan.

Ma'naviyat atamasining asosida "ma'no" so'zi yotadi. Insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, hatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istiklalari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi.

Ma'naviyat - bu inson onging o'ziga xos xususiyatidir, u jamiyat va tabiat bilan o'zaro munosabatlarda yuqori, ichki axloqiy tamoyillarni amaliy ifodasi sifatida shaxs faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'naviyat - bu shaxsning individual va ijtimoiy voqelikni bog'laydigan va shu tariqa xulq-atvor, fikrlash, motivlar va hokazolarning ideal tasvirlari makonini tashkil etuvchi ijtimoiy ong mahsulidir. Ya'ni, insonning o'zini aql-idrokka ega bo'lgan mavjudot sifatida o'z borlig'ini chuqur anglash. va uni yangi darajasiga olib chiqishi aynan ma'naviy qadriyatlar asosida amalga oshiriladi. Shunday qilib, ma'naviyat-bu ichki ruhiy yuksalish va borliqning yuqori tamoyillariga doimiy intilish va egoizm inersiyasini yo'q qilishdir.

Inson ma'naviyatining mohiyati cheksiz va abadiy borliqda, uning cheklanganligi va abadiyligiga qaramay, shaxsiy erkinlik va mas'uliyat holatiga o'tishdan iboratdir. Biz ma'naviyatning mohiyatini tushunishdagi bu yondashuvni qo'llab-quvatlashimiz mumkin, chunki axloqiy tamoyillarga

FALSAFA

rioya qilish nafaqat dindorlarning, balki har qanday odamning burchidir, unga yaxshilik va yomonlikni anglash qobiliyatini anglatadi.

Fitrat xalqimiz, mamlakatimiz, millatimizning taqdiri, qismati haqidagi taassurotlarini quyidagicha umumlashtiradi: "Ellik yildan beri ezildik, taxqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplandi, erimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g'asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug'ga bo'yundik, butun borlig'imizni qo'ldan berdik".

Insonning ma'nnaviy holati, uning oila va jamiyatda yashashiga tayyorgarlik darjasini avvalo ta'lif, tarbiya olishiga bog'liqligidan kelib chiqib, Fitrat muktab oldiga katta, yangi vazifalar qo'ydi, o'qitishning yangi usulini ("usuli jadid") qo'llash kerakligini ta'kidladi. "Jadidlarning bir guruhi maorif-ma'rifikat orqali xalq ahvolini yaxshilashga intilishsa, ikkinchi guruhi davlat tizimini isloh etish, qayta qurish orqaligina xalq va yurt ahvolini o'nglash mumkin, degan siyosiy yo'ldan yurishga intildi". Jadidchilikning ana shu ikkinchi turining shakllanishiga eng yirik hissa qo'shganlardan biri Fitrat bo'ldi. Shu yo'nalish tarafdarlari sa'y-harakatlari natijasida jadidchilik haqiqiy ijtimoiy-siyosiy harakatga aylandi.

Hamma ma'rifikatparvar jadidlar singari Fitratning ushbu ijtimoiy va ma'nnaviy tanazzulni bartaraf qila oladigan birdan bir yo'l ta'lif-tarbiya sohalarida chuqur islohotlar o'tkazishdir, degan xulosasiga ko'ra, avvalo yoshlarning faolligini oshirish, uning ijtimoiy mohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq edi. "Magar vaqt etdiki, hozirgi kunda tahsil bilan umumni komillikkha etkazsa", ya'ni yoshlar har tomonlama kamoloti butun jamiyat, har bir inson kamolotiga erishishga qaratilgan eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yoshlarni avvalo ilm-fan, bilimlarni o'zlashtirish tashkil etadi, chunki "ilm mulk-mamlakat obodligining sababchisidir. Ilm-millat taraqqiysining boisidir".

Fitrat ilm ahli va olimlar xususida juda ko'p yozgan. Masalan, Fitrat: "Johillar bilan olimlar barobar bo'la olmaslar" oyatining Qozi Bayzoviy tomonidan keltirilgan ikki xil tafsirini bayon qiladi: "Oyatning to'g'ri ma'nosi shuki, agar odam olim bo'lsa, Ollohdan qo'rqa (zero qo'rquv barcha narsaning asli va g'ayri aslini farqlaganda paydo bo'ladi). Ko'chma ma'noda esa Xudo olimlarni ulug'laydi, degan ma'no kelib chiqadi. Shu har ikki tafsirdan qay birini ixtiyor qilsangiz ham ilmnинг izzatu sharifi va haqiqiy ulamolarning yuqori martabada ekanliklari ko'z oldingizda zohir bo'ladi. Hazrati Rasuli akram o'z hadislarida izhor qildilarki, ilm olishning kamayib ketishi, jaholatning o'rin olishi qiyomat alomatlardanadir. Olamning nizomi va intizomi ham aql bo'lmaganida xarob bo'lardi". Ko'rinish turibdiki, Fitrat millatning kelajagini faqatgina aql va idrok bilan ish ko'rishda, diniy va dunyoviy ilmlarni barobar o'rganishda, ilmu-urfonda ko'radi.

Ilmdan uzoq bo'lgan odam turli yomon sifatlarni o'zida jamlanganini o'zi ham bilmay qoladi. Fitrat nodonlik va jaholatni, ayyorlik, firibgarlikni, isrofgarchilik, ziyonkorlik, sarkashlik, g'azab, pastkashlik, hirs, hayosizlik va xushomadni qoralaydi. Har bir salbiy xislat egasiga tavsif berar ekan, odamlarni ulardan uzoqroq yurishga, ehtirot bo'lishga chaqiradi. Masalan, uning: "Munofiq uch narsada bilinadi: gapirsa yolg'on gapiradi, va'dasiga xilof ish qiladi, omonatga xiyonat qiladi. Munofiqlarga bu dunyo, u dunyoda rohat va najot yo'qdir. Olloh Qur'oni Karimda ularni kofirlardan ham battar malomat qilgan" kabi tavsiflari odamning qalbida shu salbiy xislatga nisbatan nafrat uyg'otib, uni ijobji xislatlar egasi bo'lishga chorlaydi. Fitrat shijoat, karam, jasorat, sabot, hilim kabi sifat egalarini maqtaydi. Bu masalalar tahlili talqinida Fitrat yana Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislaridan keng foydalangan.

Ma'rifikatparvar, dinshunos olim Fitrat asarlariga xos narsa-bu tanqid bo'lib, u o'z asarida qozilarni shunday tanqid qiladi: "Bundan bir necha yil muqaddam bizning idora tizimimiz ulamolar qo'lida edi, lekin ular bizga rahbarlik qilishga ojiz qoldilar, bizni halokat girdobidan najot sohiliga chiqarish o'rni, ular najot sohilidan halokat girdobiga tashladilar".

Fitrat xalqning ma'nnaviy darajasini yuksaltirish va yoshlarga zamon talablariga mos ravishda bilim berish yo'lida butun hayotini baxshida etdi. Muhimi, Fitrat bu yo'lda diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'un holda olib borishni tavsiya qilgan ediki, uning bu harakatlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Iymon-e'tiqodining kuchliligi, tasavvufiy g'oyalarga munosabati, odamlarga ikki dunyo saodatiga erishish yo'llarini ko'rsatishi bilan Fitrat domla o'z salaflari va zamondoshlaridan yanada yuksak maqomda turgandek tuyuladi.

Muayyan bir insonning ma'nnaviyati, agarda u ijodkor bo'ladigan bo'lsa, uning asarlari, ilmiy va badiiy merosi orqali xalqiga yillar, asrlar osha beminnat xizmat qiladi, o'tmisht va kelajakni

tutashtiruvchi ko'priq bo'lib xizmat qiladi. Fitrat asarları falsafiy tafakkur taraqqiyotida noyob hodisadir.

Fitrat dramaturgiya sohasida ishlashni muttasil-hamma sohadagi ishlari bilan qo'shib davom ettiradi. Uning so'nggi sahna asari "Ruzalar" 1930 yilda bosilib chiqdi. Bunda Fitrat ro'za tutishning xosiyati haqida xammaga va'z-nasixat qilib turib, o'zi amal qilmaydigan badnafs, ta'magir ayrim dindorlarning qilmishlarini-Erboqiy obrazi faoliyatida qattiq tanqid qiladi. Tanqid qiladigina emas, kirdikorlarini fosh etib tashlaydi. Muallif o'z asarini "kichik bir tomosha asarchasi" deb ataydi. To'g'ri, hajmi kichik bir ixcham sahna asarida tomoshabin katta bir hayotiy voqelikdan ogoh qilinadi.

Buxoro azaldan ta'llimning yirik o'chog'i bo'lganini anglaganligi Fitratning qayg'usini yanada oshiradi. 1911 yili "Bayonoti sayyohi hindi" asari yozilgan vaqtida, 200 ta oliy, o'rta va quyi bosqich madrasalar faoliyat yuritgan. U vaqfdan olingen umumiy daromadi 3776000 tanga bo'lgan 72 ta madrasaning nomini keltirib o'tadi. Bu o'sha payt o'lchovida ulkan mablag' edi, biroq ularning juda kam qismi madrasalar ta'minotiga sarflangan, katta qismi vaqf boshqaruvchilarining cho'ntagiga tushgan. Ular na hujralarni sotishdan, na mudarrislar o'rnini pul evaziga taqsimlashdan hazar qilishmagan. "400000 tolibni tarbiyalagan va ularni dunyoning barcha burchaklariga yo'llagan. Buxoro ilgari shu kabi qudratli ilmiy salohiyat egasi edi. Savodxonlik osmonining bu quyoshi, insoniyat olamining bu jannati, olam ilmlarining bu obod xonadoni, butun olam uchun bilim minbari taraqqiyotning yuqorida qayd etilgan barcha yo'llari mavjud bo'lgani holda ahmoqlik tog'lari bilan o'ralgan va johillik zanjiriga bog'langan mamlakatga aylangan!" - deb xitob qiladi Fitrat. Jamiyatdagi bunday holat xalqning ma'naviyati va ular axloqiga bolta urish bilan barobar edi.

XULOSA

XIX asr oxirlari, XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-axloqiy hayotida Chor Rossiyasining istilochilik siyosati o'z aksini topgan edi. Istilo oqibatida Turkiston xalqlari nafaqat milliy ta'lim tizimidan, balki boy ilmiy merosdan va qadriyatlardan mahrum bo'ldilar. Millatni saqlab qolishga tabiiy zarurat sifatida, ruslashtirish siyosatiga qarshi, jadidchilik harakati vujudga keldi. Bu harakat mohiyatida Avaz O'tar, Furqat, Muqimiy kabilarning ma'rifatparvarligi singari rus maorifi va madaniyatidan ta'sirlanish emas, irqiy zulmga qarshi kurash, millatning iqtisodiy, madaniy hayotini ma'rifat yordamida qayta qurish yotar edi. Bunday hayrli maqsadlarni ko'zlagan ta'llimot shu davrga qadar turli bahoyu taqinlarga sazovor bo'ldi. Jadidchilik turli g'oyaviy kurash va e'tirozlardan qat'iy nazar o'z mohiyatidagi nodir maqsadlarni turli usullarda namoyon qila berdi.

Mutafakkir bobomiz yuragida armon bo'lib ketgan orzularning ushalishi, u ko'rsatib o'tgan kamchiliklarni bartaraf etish milliy istiqlolimizni qo'lga kiritgan kunimizdanoq boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu yillarda prezidentimiz tomonidan har bir yangi yilga o'ziga xos nom berilishi-ramziy ma'noga ega. O'tkazilayotgan islohotlarning inson manfaatlari, uning kamoloti va barkamolligiga qaratilganligi ham, butun kuchni axloqiy madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilayotganligi ham diqqatga sazovor ishlardandir!

Umuman, ajddolarimiz tomonidan yaratilgan bebahvo me'rosda xalqimizning ezgulik, adolat, axloq, odob, porloq hayot xaqidagi g'oyalari, orzu-umidlari mujassamlashgan. Bugun ushbu qadriyatlar o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi, milliy madaniyatining o'zagi sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekiston xalqlarining ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixida (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) yoshlarda bag'rikenglik muammolarining o'ziga xos tarzda yoritilishi amaliy ahamiyatga molik meros bo'lib undan mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish jarayoni hamda rivojlantirilishi uchun ushbu meros eng muhim ma'naviy-g'oyaviy manbalardan biri sifatida foydalanish mumkin. Fitratning "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir" - degan so'zları bugungi kunda ham insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan ta'lim-tarbiya berishda tarixiy va falsafiy ahamiyatga egadir. Yoshlarni ma'rifat va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash muammolari bir-birlari bilan qanchalik bog'langanlari, zamонавиј ахамият kasb etganlari Fitrat g'oyalarida o'z ifodasini topgan.

Yoshlarda tolerantlikni shakllantirishdagi tarixiy-falsafiy meros O'zbekiston xalqlarining ma'naviy an'analari va hozirgi zamon voqeligi tizimini tashkil etib, tolerantlik me'yorlari va qadriyatları asosiga qurilgan yoshlarda tolerantlik, diniy bag'rikenglik ruhini shakllantirish hamda ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mustahkam asosi bo'lib xizmat qiladi. Fitratda diniylik va dunyoviylik o'ta mutanosib tarzda bo'lgan. U ateist ham, aqidaparast ham emas. "Shaytonning Tangriga isyonı" esa uning shu jihatlarni ochib berishda, Fitrat dunyoqarashini o'rganishda juda zo'r manba bo'lib, ramzlarning qat-qatligi, undagi zohiriyl va botiniy ma'nolarning bir-biriga zidligi, badiiy yuksakligi bilan

FALSAFA

o'zbek adabiyoti va falsafasida o'ziga xos bir hodisadir. Fitrat asarlari hali ko'p zamonlar olmos singari yangi-yangi qirralarini namoyon etaveradi va shaxs ma'naviyatini boyitishda asosiy dasturamal vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – Б. 263.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // -Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 20 sentyabr.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y., - В. 49.
4. Mustaqillik izohli ilmiy – ommabop lug'at. Т. юююю 2000 yil, 221 - 222 betlar.
5. Галузо П.Г. Туркестан-колония. -Т.: Коммунист ун-та, 1935.-С.49
6. Логофет Д. Бухарское ханство под русским протекторатом. В 2x т/ -С-Петербург; Б.И., 1911.-Т 2.-с.8
7. A.Fitrat. Oila.- Т.; Ma'naviyat, 2000, 30-32 б.
8. Jadidchilik fenomeni. Dilorom Alimova. Akademnashr. -Т. 2022. –В. 244
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Abdurauf Fitrat tavalludining 110 yilligini nishonlash to'g'risida // Xalq so'zi. 1996, 24 fevral.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 12 maydagi Farmoyishi. // O'zbekiston ovozi. 1999, 13 may.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Vatan va xalq ozodligi yilida qurban bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida // Xalq so'zi. 1999, 23 iyul.
12. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: O'zbekiston nashriyoti. 2021. –Б. 18.
13. Abdurauf Fitrat. Muxtoriyat // Tanlangan asarlar. 3-jild. Т.: "Ma'naviyat", 2003. –В. 198.
14. Mamajonov S. Fitrat // Ma'naviyat yulduzları. Т., 1999. 373-b.
15. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. Т.: "Ma'naviyat", 2000. –В. 92.
16. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.
17. Shodiyev, J. J. (2023). ROLE OF NUMBERS IN HUMAN WORTH AND DEVELOPMENT. SCHOLAR, 1(28), 252-257.
18. Qakhrova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. Farg'onha davlat universiteti, (5), 17-17.
19. Fitrat. Najot yo'lli. (Rahbari najot) (Tojik tilidan tarjima va izohlar muallifi Shodmon Vohidov), Т, "Ma'naviyat", 2001 yil, -В. 128.
20. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 126.
21. Абд-ур-Рауф. Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она есть) / Перевод с персидского А.Н. Кондратева. Самарканд, 1913. С.19-22.